



UDK: 81`42:004.8

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SUN’IY INTELLEKT GENERATSIYA  
QILGAN MATNLARNING INTERTEKSTUAL XUSUSIYATLARINI  
QIYOSIY TAHLIL QILISH**

***Ikromova Munajat Furqat qizi***

*Namangan davlat universiteti,*

*Jahon tillar fakulteti,*

*Amaliy xorijiy tillar kafedrası magistranti*

*Morgan\_0077@icloud.com*

***Kuliyeva Dilshoda***

*Namangan davlat universiteti,*

*Amaliy xorijiy tillar kafedrası mudiri,*

*dotsent, PhD*

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida sun’iy intellekt tomonidan generatsiya qilingan matnlarning intertekstual xususiyatlari qiyosiy lingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda intertekstual metod qo‘llanilib, matnlarda uchraydigan asosiy birliklar - sitata, alluziya, stilistik takror va diskursiv transformatsiyalar aniqlanadi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi sun’iy intellekt matnlarida ochiq intertekstual elementlar ustun bo‘lsa, o‘zbek tilidagi matnlarda implitsit intertekstual aloqalar ko‘proq namoyon bo‘ladi. Ushbu farqlar tilning strukturaviy xususiyatlari hamda sun’iy intellekt modellari o‘qitilgan korpuslarning hajmi va tarkibi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarni lingvistik tahlil qilish, ularni aniqlash va baholash jarayonlarida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.



**Kalit soʻzlar**

Sunʼiy intellekt, intertekstual tahlil, qiyosiy lingvistika, matn generatsiyasi, diskurs, alluziya, sitata, stilistik takror.

**UDC: 81`42:004.8**

**COMPARATIVE ANALYSIS OF INTERTEXTUAL FEATURES IN AI-GENERATED TEXTS IN UZBEK AND ENGLISH**

***Ikromova Munajat Furqat qizi***

*Namangan State University,*

*Faculty of World Languages,*

*Graduate student of the Department of Applied Foreign Languages*

*Morgan\_0077@icloud.com*

***Kuliyeva Dilshoda***

*Namangan State University,*

*Head of the deptment of Applied foreign languages,*

*Assos.Professor, PhD*

**Abstract**

This article presents a comparative linguistic analysis of intertextual features in AI-generated texts in Uzbek and English. The study employs the intertextual method to identify key textual elements, including citation, allusion, stylistic repetition, and discursive transformation. The findings indicate that explicit intertextual elements are more prevalent in English AI-generated texts, whereas Uzbek texts tend to exhibit implicit intertextual connections. These differences are explained by the structural characteristics of the languages and the size and composition of the training corpora used in AI models. The results of the study contribute to the theoretical understanding of AI-generated discourse and have practical implications for the detection and evaluation of machine-generated texts.



## Keywords

Artificial intelligence, intertextual analysis, comparative linguistics, text generation, discourse, allusion, citation, stylistic repetition.

УДК: 81`42:004.8

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ТЕКСТОВ, СГЕНЕРИРОВАННЫХ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

*Икромова Мунаджат Фуркат кизи*

*Наманганский государственный университет,*

*Факультет мировых языков,*

*магистрант кафедры практические иностранные языки*

*[Morgan\\_0077@icloud.com](mailto:Morgan_0077@icloud.com)*

*Кулиева Дилиода*

*Наманганский государственный университет,*

*заведующая кафедрой прикладных иностранных языков,*

*доцент, PhD*

## Аннотация

В данной статье проводится сравнительный лингвистический анализ интертекстуальных особенностей текстов, сгенерированных искусственным интеллектом на узбекском и английском языках. В исследовании применяется интертекстуальный метод, позволяющий выявить основные текстовые элементы, такие как цитирование, аллюзии, стилистические повторы и дискурсивные трансформации. Полученные результаты показывают, что в англоязычных текстах, созданных ИИ, преобладают явные интертекстуальные элементы, тогда как в узбекских текстах чаще встречаются имплицитные



интертекстуальные связи. Данные различия объясняются структурными особенностями языков, а также объемом и составом обучающих корпусов моделей искусственного интеллекта. Результаты исследования имеют теоретическую и практическую значимость для анализа и распознавания текстов, созданных ИИ.

### **Ключевые слова**

Искусственный интеллект, интертекстуальный анализ, сравнительная лингвистика, генерация текста, дискурс, аллюзия, цитирование, стилистический повтор.

### **KIRISH**

So‘nggi yillarda sun‘iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida matn generatsiyasi jarayoni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Zamonaviy til modellari yordamida yaratilayotgan matnlar nafaqat grammatik va sintaktik jihatdan mukammal, balki mazmunan murakkab va ko‘p qatlamli diskursiv tuzilishga ega bo‘lib bormoqda. Bu esa sun‘iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarni lingvistik jihatdan chuqur o‘rganishni dolzarb ilmiy muammo sifatida yuzaga keltirmoqda. Intertekstual yondashuv zamonaviy lingvistikaning muhim nazariy konsepsiyalaridan biri hisoblanib, matnlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ta‘sir va mazmuniy aloqalarni tahlil qilishga xizmat qiladi. Har qanday matn boshqa matnlar bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq holda shakllanishi, unda sitata, alluziya, stilistik takror kabi intertekstual birliklarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Shu nuqtai nazardan, sun‘iy intellekt tomonidan generatsiya qilingan matnlarda intertekstual xususiyatlarning namoyon bo‘lishini o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunga qadar sun‘iy intellekt matnlarining intertekstual tabiati, ayniqsa turli tillar kesimida qiyosiy tahlil asosida yetarli darajada o‘rganilmagan. Tadqiqot natijalari sun‘iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarning lingvistik tabiatini chuqurroq tushunish, ularni



tahlil qilish va baholash jarayonlarida nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. [4, 9, 10]

### ADABIYOTLAR SHARHI

Intertekstual nazariya va sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarni tahlil qilish masalalari zamonaviy lingvistika va kompyuter lingvistikasi kesishgan nuqtada shakllanayotgan dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar, asosan, ikki asosiy yo'nalishga - intertekstual nazariyaga oid fundamental ishlanmalar hamda sun'iy intellekt asosidagi til modellari va matn generatsiyasi texnologiyalariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarga bo'linadi. [1, 4, 7]

Intertekstual yondashuvning nazariy asoslari J. Kristeva (1980) va R. Barthes (1977) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular matnni boshqa matnlar bilan o'zaro bog'liq bo'lgan ko'p qatlamli semantik tizim sifatida talqin qiladilar. Ushbu yondashuvda matn ichida sitata, alluziya va stilistik takror kabi birliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Diskursiv tahlil doirasida N. Fairclough (1995) tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy diskurs tahlili metodi matnni ijtimoiy va kommunikativ kontekstda o'rganishga imkon beradi. Ushbu yondashuv intertekstual aloqalarning funksional rolini aniqlashda samarali hisoblanadi. Biroq, ushbu metod sun'iy intellekt matnlarining algoritmik va modelga bog'liq xususiyatlarini hisobga olishda ma'lum darajada cheklangan. [1, 2, 3]

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, intertekstual nazariya lingvistik jihatdan yetarlicha rivojlangan bo'lsa-da, u sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarga to'liq moslashtirilmagan. Aksincha, sun'iy intellektga oid tadqiqotlar texnologik jihatdan mukammal bo'lsa-da, lingvistik va intertekstual tahlil yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Demak, ushbu ikki yo'nalish o'rtasida muayyan ilmiy bo'shliq mavjud bo'lib, aynan shu bo'shliqni to'ldirish mazkur tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. [4, 5]

### TADQIQOT METODOLOGIYASI



Mazkur tadqiqot o‘zbek va ingliz tillarida sun’iy intellekt tomonidan generatsiya qilingan matnlarning intertekstual xususiyatlarini aniqlash va qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks lingvistik va analitik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi intertekstual metodni markaziy tahlil vositasi sifatida qo‘llash bilan birga, qiyosiy lingvistik tahlil, diskursiv tahlil hamda elementlararo statistik taqqoslash usullarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotning empirik bazasini sun’iy intellekt asosidagi zamonaviy til modellari yordamida generatsiya qilingan matnlar tashkil etadi. Xususan, o‘zbek va ingliz tillarida bir xil tematik yo‘nalishlar asosida yaratilgan matnlar tanlab olindi. Tanlash jarayonida matnlarning hajmi, mavzusi va stilistik xususiyatlari maksimal darajada bir xil bo‘lishiga e’tibor qaratildi. Natijada, har bir til bo‘yicha 10 tadan, jami 20 ta matndan iborat korpus shakllantirildi. Ushbu korpus tadqiqotning asosiy tahlil obyekti sifatida xizmat qiladi. Tahlil jarayonida intertekstual metod asosiy vosita sifatida qo‘llanilib, u orqali matn ichida mavjud bo‘lgan intertekstual birliklar aniqlanadi va tasniflanadi. Intertekstual birliklar quyidagi asosiy kategoriyalarga ajratildi: [1, 2]

(1) sitata - boshqa matndan bevosita olingan yoki aniq shaklda takrorlangan birliklar;

(2) alluziya - yashirin yoki bilvosita ishora shaklida ifodalangan matnlararo bog‘liqlik;

(3) stilistik takror - ma’lum strukturaviy yoki leksik birliklarning muntazam takrorlanishi;

(4) diskursiv transformatsiya - mavjud matn mazmunining o‘zgartirilgan, moslashtirilgan yoki qayta ifodalangan shakli. [1, 2, 10]

Har bir matn ushbu mezonlar asosida segmentlarga ajratilib, undagi intertekstual birliklar aniqlanib, maxsus kodlash tizimi orqali belgilandi. Masalan, [CIT] - sitata, [ALL] - alluziya, [REP] - stilistik takror, [TRF] - transformatsiya kabi belgilash tizimi joriy etildi. Ushbu yondashuv intertekstual elementlarni tizimli va



aniq identifikatsiya qilish imkonini berdi. Qiyosiy tahlil bosqichida o‘zbek va ingliz matnlaridagi aniqlangan intertekstual birliklar miqdoriy va sifat jihatdan solishtirildi. Shunday qilib, mazkur metodologiya sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarning intertekstual xususiyatlarini kompleks yondashuv asosida o‘rganish imkonini beradi hamda o‘zbek va ingliz tillari kesimida ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi. [1, 3, 10]

### TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida o‘zbek va ingliz tillarida sun’iy intellekt tomonidan generatsiya qilingan matnlar intertekstual metod asosida tahlil qilindi. Tahlil jarayonida matnlarda mavjud intertekstual birliklar aniqlanib, ular sitata [CIT], alluziya [ALL], stilistik takror [REP] va diskursiv transformatsiya [TRF] kategoriyalari bo‘yicha tasniflandi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilidagi sun’iy intellekt matnlarida intertekstual birliklarning umumiy chastotasi o‘zbek tilidagi matnlarga nisbatan yuqoriroqdir. Ayniqsa, sitata va alluziya kabi ochiq intertekstual elementlar ingliz matnlarida ko‘proq uchrashi kuzatildi. Bunga sabab sifatida ingliz tilidagi matnlar uchun mavjud bo‘lgan katta hajmdagi trening korpuslari va ularning turli manbalarga boyligi ko‘rsatish mumkin. AI modellari uchun mavjud ma’lumotlar bazasining nisbatan cheklanganligi bilan izohlanadi. Quyidagi jadvalda intertekstual birliklarning har ikki til kesimidagi taqsimoti foizlarda ifodalangan: [4, 8, 9]

#### Jadval I

##### Intertekstual birliklarning qiyosiy taqsimoti

Intertekstual birlik	O‘zbek (%)	Ingliz (%)
Sitata (CIT)	28	64
Alluziya (ALL)	32	57
Takror (REP)	71	43
Transformatsiya (TRF)	59	68



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ingliz tilidagi matnlarda sitata va alluziya ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqori. Aksincha, o'zbek matnlarida stilistik takror ustunlik qiladi. Shuningdek, alluziya elementlari ingliz matnlarida ko'proq aniq va madaniy kontekstga boy bo'lsa, o'zbek matnlarida ular umumiy va mavhumroq shaklda ifodalanishi kuzatildi. Bu farq madaniy va lingvistik kontekstlarning o'ziga xosligi bilan bog'liq. [1, 2, 10]

Natijalar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

- ingliz tilidagi AI matnlarida intertekstual birliklar ko'proq va aniqroq ifodalanadi;
- o'zbek tilidagi matnlarda esa intertekstual aloqalar ko'proq implitsit va transformatsiyalangan shaklda namoyon bo'ladi;
- stilistik takror o'zbek matnlarining asosiy intertekstual xususiyatlaridan biri hisoblanadi;
- diskursiv transformatsiya har ikki til uchun xos bo'lsa-da, uning ifodalanish darajasi ingliz tilida yuqoriroq.

Umuman olganda, olingan natijalar sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarning intertekstual xususiyatlari tilga bog'liq holda shakllanishini tasdiqlaydi hamda ularni qiyosiy lingvistik nuqtai nazardan o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. [5, 10]

## MUHOKAMA

Olingan natijalar sun'iy intellekt tomonidan generatsiya qilingan matnlarning intertekstual xususiyatlari tilning strukturaviy, semantik va diskursiv omillariga bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Xususan, ingliz tilidagi matnlarda ochiq intertekstual birliklarning, ya'ni sitata va alluziyaning yuqori darajada uchrashi ushbu til uchun mavjud bo'lgan keng va xilma-xil trening korpuslari bilan izohlanadi. Ingliz tili global miqyosda keng qo'llaniladigan til bo'lgani sababli, sun'iy intellekt modellari ushbu til bo'yicha boy intertekstual materialni o'zlashtirgan holda matn generatsiya qiladi. [7, 8, 9]



Biroq, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Xususan, tahlil uchun tanlangan matnlar sonining cheklanganligi natijalarning umumlashtirilishiga ma'lum darajada ta'sir qilishi mumkin. Bundan tashqari, o'zbek tilidagi AI korpuslarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ham tahlil natijalariga ta'sir ko'rsatgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarning intertekstual xususiyatlari tilga xos omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni chuqur o'rganish nafaqat lingvistika, balki sun'iy intellekt tadqiqotlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. [5, 10]

### XULOSA

Mazkur tadqiqotda o'zbek va ingliz tillarida sun'iy intellekt tomonidan generatsiya qilingan matnlarning intertekstual xususiyatlari qiyosiy lingvistik yondashuv asosida tahlil qilindi. Intertekstual metodni qo'llash orqali matnlarda uchraydigan asosiy birliklar - sitata, alluziya, stilistik takror va diskursiv transformatsiyalar aniqlanib, ularning tillar kesimidagi o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidagi sun'iy intellekt matnlarida intertekstual birliklar, ayniqsa sitata va alluziya kabi ochiq elementlar yuqori darajada namoyon bo'ladi. Kelgusida ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni kengaytirish, xususan, ko'proq hajmdagi matnlar asosida chuqur statistik tahlil o'tkazish hamda boshqa tillarni ham qamrab olgan holda intertekstual xususiyatlarni o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kristeva, J. (1980). *Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art*. New York: Columbia University Press.  
<https://books.google.com>
2. Barthes, R. (1977). *Image, Music, Text*. London: Fontana Press.  
[https://monoskop.org/images/2/2b/Barthes\\_Roland\\_Image\\_Music\\_Text.pdf](https://monoskop.org/images/2/2b/Barthes_Roland_Image_Music_Text.pdf)



3. Fairclough, N. (1995). *Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language*. London: Longman.  
<https://www.researchgate.net/publication/311678107>
4. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2021). *Speech and Language Processing* (3rd ed.). <https://web.stanford.edu/~jurafsky/slp3/>
5. Bender, E. M., & Koller, A. (2020). Climbing towards NLU: On Meaning, Form, and Understanding in the Age of Data. *ACL Proceedings*. <https://aclanthology.org/2020.acl-main.463/>
6. Radford, A., et al. (2019). *Language Models are Unsupervised Multitask Learners*. OpenAI. [https://cdn.openai.com/better-language-models/language\\_models\\_are\\_unsupervised\\_multitask\\_learners.pdf](https://cdn.openai.com/better-language-models/language_models_are_unsupervised_multitask_learners.pdf)
7. Vaswani, A., et al. (2017). Attention is All You Need. *Advances in Neural Information Processing Systems*. <https://arxiv.org/abs/1706.03762>
8. Devlin, J., Chang, M. W., Lee, K., & Toutanova, K. (2019). BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding. <https://arxiv.org/abs/1810.04805>
9. Brown, T. B., et al. (2020). Language Models are Few-Shot Learners. *NeurIPS*. <https://arxiv.org/abs/2005.14165>
10. Allen, G. (2011). *Intertextuality* (2nd ed.). London: Routledge.  
<https://books.google.com>